

**MAKTABDA DARSLARNI PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR
BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

Nazirova Zulxumorxon Zuhridin qizi

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 19-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada past darajadagi o'zlashtiruvchi o'quvchilar kognitiv ehtiyojlarini shakllantirishning psixologik omillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, past darajada o'zlashtirish, kognitiv ehtiyoj, shakllantirish, psixologiya.

KIRISH

Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi

Bugungi kunda mamlakatimiz, shaxsan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, uni dunyo tajribalariga asoslangan xolda takomillashtirish borasida talaygina amaliy islohatlar olib borilmoqda. Xususan, uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy bo'g'ini bo'lgan o'rta umumta'lim maktablarining ishini rivojlantirish borasidagi ishlar muhimdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Darslarni past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o'qituvchidan alohida sabot va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug'ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o'tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o'zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o'quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilardagi ijobiy o'zgarishlar rag'batlantirilishi muhim. Bo'sh o'zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak.

Taniqli psixolog D.Karnegi ta'kidlaganidek, dunyoda odamlarni nimadir qilishga undaydigan birgina usul bor. Mohiyatan bu usul odamni nimadir qilishni istashga majburlash demakdir. Mashhur amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyuining fikriga ko'ra, inson tabiatiga xos bo'lgan eng asosiy intilish – bu “ahamiyatli – qadrlı bo'lish istagi”dir.

Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o`ziga xos xususiyatlarga ega. “Bolalar nimani yaxshi ko`rishadi va nimani istashadi?” degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

1. Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar – o`yinlar, hikoyalar, o`zaro gap sotish, lofchilik kabilar ana shunday instinkning belgilaridir.
2. Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo`zg`aluvchanlik, oxiri ko`rinmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko`rish, ushlab ko`rish, tatib ko`rishga intilish sababi ana shunda.
3. Bolalar o`zini ko`rsatib turgisi keladi, o`zi haqida, o`z taassurotlari haqida gapirgisi, o`rtoqlashgisi keladi. O`z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo`ladi – bu bolalar ijodkorligi instinktidir.
4. Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g`ayrioddiy narsalarni to`qib chiqarishni yaxshi ko`rishadi.
5. Bolalarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o`ynaydi.

Shularni yaxshi tushunib olsak, tashqaridan olib kiriladigan soxta stimullarni qidirib

yurishimizga to`g`ri kelmaydi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Istaklarga tayaning. Bolalar nimani istashadi – bu o`qituvchining olidida turgan bosh masala bo`lib hisoblanadi. Agar biz sichqonni tutmoqchi bo`lsak, qopqonga qip-qizil bo`lib pishgan gilosi qo`ymaymiz, balki pishloq bo`lagini qo`yamiz, ya`ni bunda o`z istagimiz va ta`bimizga ko`ra emas, balki kemiruvchilarning ta`bidan kelib chiqib ish yuritimiz. Shuni mudom yodda tutishimiz va anglashimiz lozimki, faqat biz nimani istashimizgina muhim emas, balki bolalar nimani istashlari ham juda muhimdir. Uni sindirishga va qayta qurishga urinmang: u o`z xohish-istaklari uchun aybdor emas. Tarbiyaning tabiatga moslanganligi g`oyasini yodda tuting. O`qituvchining vazifasi – agar pedagogik maqsadlarga mos kelmasa, intilishlarning yo`nalishini o`zgartirish.

Napoleon shunday ta`kidlagan edi. Shu tariqa ish yuritib, u o`z soldatlarini turli xil unvonlar bilan taqdirlashda o`ta saxovatli edi. Aytishlaricha, Napoleon armiyasidagi barcha askarlarning ismini yoddan bilar ekan. Ofitserlar haqida gapirmasa ham bo`ladi. Bu o`rinda bir emas, ikkita “o`yinchoq” amaliyotda qo`llangan: biri - unvon bo`lsa, ikkinchisi – ismlarni yoddan bilish. Shunday qaraganda bu arziyas narsalar hech qanday ahamiyatga ega emasdek tuyuladi, ammo qanaqa samara berganini aytmaymizmi? “Kichkina insoniy zaifliklar” to`liq ekspluatatsiya qilinar edi: nazarga tushish, qadrlanish, bu shon-sharafni isbotlab turadigan nishonlarni

taqish hammaga ham xush yoqadi. Buning ustiga agar armiya qo'mondoni sening ismingni bilsa va o'z isming bilan senga murojaat qilsa, ikki marotaba yoqimli.

O'quvchini maqtang. Bir bir qarashda oddiy stimulg a o'xshab ko'rinsa-da, aslida uni qo'llab, muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagilarni e'tiborga olish kerak bo'ladi:

- Maqtov tasodifiy, vaziyatli bo'lishi kerak, uni oldindan rejalashtirib yoki jadval asosida tayinlab bo'lmaydi.
- Uncha ko'ngildagidek bajarilmagan, ayniqsa, yomon bajarilgan ishni ko'kka ko'tarib maqtamang.
- Maqtov ochiq va aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Minnatdorchilik qabul qilish har doim kishi uchun yoqimli, ammo umumiy, aniq shaxsga yo'naltirilmagan qolip-andaza shakldagi yuzlab minnatdorchilik bildirilganda ham, baribir ataylab, aniq bir kishi uchun qo'lda yozilgan bir og'iz iliq so'zning o'rnini bosa olmaydi. Ko'ngliga tegmasdan tanqid qiling.

XULOSA

Demak, aytish mumkinki, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarni to'g'ri va obyektiv tashxislash to'liq o'zlashtirish tizimini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"GI Qarori.
3. Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.
4. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.